

«DINIY EKSTREMIZM VA TERRORIZM-YOSHLAR KELAJAGIGA TAHDID»

2016 yil 25 oktyabr kuni Ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirish, diniy aqidaparastlik va missionerlikning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi» doirasida o'tkazilgan «DINIY EKSTREMIZM VA TERRORIZM – YOSHLAR KELAJAGIGA TAHDID» mavzusidagi ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.

Tadbirda Termiz davlat universiteti Ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha prorektori O.Ro'ziev, Termiz shahar imomi Nizomiddin Choriev, Tarix fakulteti katta o'qituvchisi Kamol Islomov, Fizika-matematika fakulteti Axborot tenologiyalari kafedrasini o'qituvchisi Husniddin Ramazonovlar ishtirot etishdi.

Tadbirni Termiz davlat universiteti Ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha prorektori O.Ro'ziev kirish so'zi bilan ochib berib, Yoshlarda diniy bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish, ularni boshqa din an'analariga nisbatan hurmat kayfiyatida tarbiyalash ayni paytda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu maqsadga yo'naltirilgan harakat uzuksiz ta'lif tizimining har bir bosqichida o'z aksini topishi kerak. Xususan, yurtimiz uchun zarur mutaxassis kadrlarni tayyorlovchi oliy ta'lif muassasalari oldida talaba yoshlarni bag'rikenglik ruhiyatida shakllantirish vazifasi katta o'rinni tutishi haqida fikrlarini bildirib o'tdi.



Tadbir davomida Yoshlarni yet g'oyalalar ta'siridan himoya qilish, ularni sog'lom e'tiqod va milliy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo hamjihatlik ruhida tarbiyalash doirasida Termiz shahar imomi Nizomiddin Choriev o'zlarining bir qator fikr-mulahazalari bilan ishtirot etdi.



SHundan so'ng Termiz shahar imomi Nizomiddin Choriev so'zida davom etar ekan yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy sog'lom muhitni yaratish, bunyodkor va buzg'unchi g'oyalarni o'zaro farqlay olish hamda g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashmoq kerakligi haqida da'vat qildilar.



Bundan tashqari shu mavzu doirasidagi talabalar o'zlarining qiziqtirgan savollariga tadbir mehmoni va TerDU Tarix fakulteti katta o'qituvchisi Kamol Islomov tomonidan yetarli va to'liq javob oldilar.

Tadbir so'ngida Tarix fakulteti katta o'qituvchisi Kamol Islomov talabalarga mavzu yuzasidan quyidagi ma'lumotlarni aytib o'tdilar.

Ekstremizm – «ekstremistik» so'zi «aql bovar qilmas darajada», «haddan oshish» ma'nolarini bildiradi. Jamiyatda qabul qilingan qadriyatlar va me'yorlarga zid qarashlarni ilgari surish, keskin qarashlar va choralarga moyillik ekstremizmning asosiy xususiyati hisoblanadi.

Dunyoviy davlat va jamiyat eng avvalo, qonun ustuvorligini taqozo etadi. “Qonun – barcha uchun barobar” degan demokratik tamoyil, shubhasiz, diniy jarayonlarga ham taalluqlidir. Ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy hayotning boshqa har qanday sohasi kabi diniy jarayonlar ham faqat qonunda belgilab qo'yilgan mezonzlarga muvofiq ravishda rivojlanishga haqlidir. Ifodalı qilib aytganda, qonun barcha boshqa sohalarni me'yorga solib turgani kabi diniy vaziyat evolyutsiyasi ham, hech qanday chekinishlarsiz, unga bo'ysunishga majbur. Bu ish demokratiyaning asosiy tamoyillaridan bo'lgan vijdon erkinligi, xususan, e'tiqod erkinligini chegaralash hisobiga qilinmaydi, albatta. Aksincha, azal-azaldan demokratik jamiyatning bosh mezoni bo'lib kelgan qonun ustuvorligini ta'minlash orqali amalga oshiriladi.

«Xalqaro terrorizm: mohiyat va maqsad», «Xalqaro terrorizm: dunyo tinchligiga tahdid», «diniy ekstremizm» va «terrorizm» so'zlarining mazmun-mohiyati tushuntirildi. «Aql bovar qilmas darajada», «haddan oshish», «zo'ravonlik» ma'nolarini bildiradigan bu tushunchalarning jamiyatda qabul qilingan qadriyatlar va me'yorlarga zid qarashlar ekani, keskin qarashlar va choralarga moyillik xususiyati ekani talabalarga yetkazildi. Diniy ekstremizm va terrorizmning tarixiy ildizlari, manbalari fosh etilishiga alohida e'tiborni qaratish lozim.

Diniy-ekstremistik guruhlarning yoshlarni o'z tomonlariga og'dirib olishdagi uslublariga e'tiborni qaratish lozim. Bunda ular yurtimizda dinga bo'lgan yuksak ehtirom, kishilar e'tiqodining kuchliligidan foydalananadilar. Diniy manbalar – Qur'on oyatlari va hadislarni jangarilik ruhida talqin etishga harakat qiladilar. Aslida to'g'rilikka, yaxshilikka chaqiruvchi bunday manbalarni buzib o'z g'arazli maqsadlariga bo'ysundurmoqchi bo'lgan guruhlar faoliyati fosh etiladi.

ekstremizm va terrorizm bir-biri bilan bog'liq bo'lgan yagona jarayonning birin-ketin rivojlanadigan bosqichlaridir. Shunday ekan, terrorizm global miqyosga chiqqan hozirgi sharoitda, unga qarshi kurashda ichki va tashqi omillarning ta'sirini katta ahamiyatga ega ekanini hisobga olish talab etiladi.

Dunyo davlatlari ichki va tashqi siyosatida dinning o'rnini ko'rsatib berishda yevropa, Amerika va sharq mamlakatlarining o'ziga xos xususiyatlariga to'xtalib o'tiladi.

O'zbekiston tashqi siyosatining negizini o'z kuchlarini hozirgi davrning asosiy tahdidi bilan qarshi kurashga tayyor barcha davlatlar bilan faol hamkorlik qilish tashkil etadi. SHu o'rinda, O'zbekiston amalda mintaqada va butun dunyoda xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan barcha xalqaro dastur va ikki tomonlama hamkorlik aloqalarida faol ishtirok etayotganligi ta'kidlandi.